

ZARDUSHTIYLIK TA'LIMOTI

Azamova Sitara Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
ShDPI II bosqich talabasi **Rejabova Farzona**ShDPI II bosqich talabasi **D. Otamurodov**

Annotatsiya: Zardushtiylik ta'limoti, miloddan avvalgi VI asrda Zardusht (Zoroastr) tomonidan asos solingan qadimiy din va falsafiy tizimdir. Ushbu ta'limot o'zining yuksak axloqiy qadriyatlarini, ilohiyati, va insonning ruhiy rivojlanishiga oid konseptlari bilan ajralib turadi. Zardushtiylikda haqiqat (Asha) va yolg'on (Druj) orasidagi farq, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash muhim o'rin tutadi. Dinning asosiy tushunchalaridan biri, insonning erkin ixtiyori va uning o'zining ma'naviy sa'y-harakatlari orqali haqiqatni topishga intilishidir. Zardushtiylik ta'limoti o'zining adolat, xayr-saxovat, va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarini jahon dinlariga, jumladan, yahudiylilik, xristianlik va islomga ham ta'sir qilgan.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Zoroastr, Asha, Druj, haqiqat, yaxshilik, yomonlik, ma'naviyat, axloq, qadriyatlar, jahon dini.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta'limotdir. U bexuda qon to'quvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mexnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq er ochib uni bog'u roq'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi, aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunoxga qoladi. Zardusht o'z ta'limoti bilan insonlarga tinch-totuv yashashni, xalol mexnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. U o'z ta'limotini insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha yoki abadiy roxat - *jannat*ga, yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy - *misvongatuga* tushadi, degan g'oyaga asoslantirgan. [1]

Zardushtiylik ta'limotining asosi olam qarama-qarshiliklari kurashi asosida ko'rilgan. yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axuramazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu yoki Axriman ifodalaydi. Axuramazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlarni bayon etib ulardan saqalanishni buyuradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar softligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi, har bir Zardushtiy kuniga besh marta yuvini, poklanib, quyoshga qarab uni olqishlab sig'inishi shart bo'lgan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur - suv, olov, er va xavo urug'lanadi. Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha past, baland "sukut minoralari" - daxmalarga solinadi, u erda murdalarning go'shtlarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar minora o'rtasidagi kuduqqa sohib yuboriladi. Bunda "xalol" bilan "harom"ning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi. [2]

Zardushtiylik dini jaxon miqyosida eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, eramizdan avvalgi VII-VI asrlar O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va kichik Osiyo xalqlarining e'tiqod qiluvchi dinlari hisoblangan. Eronshoxlar davrida Eronda rasmiy davlat diniga aylangan. Biroq bu davrda uni ruhoniylar, zodagon xokimlar o'z manfaatlariga bo'ysundirganlar. O'rta Osiyoni arablar bosib, islomlashtirgunlariga qadar, zardushtiylik O'rta Osiyo xalqlarining asosiy dinlari hisoblangan. Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni keskin kamayib ketgan. Ular Xindistonning Bombay, Gujarot shtatlarida

(115.000ga yaqin) va Eronning ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolganlar. Bombayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. [3]

Er.avv. IX-VIII asrlarda Osiyoning markaziy qismida shunday bir yorug'lik paydo bo'ldiki, bu narsa insoniyat taraqqiyotiga o'zining ta'sirini sezilarli darajada ko'rsata oldi. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi o'zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatda ro'y berayotgan tabaqalanish davom qilayotgan bir paytda Turon pasttekisligida Amudaryo bo'ylarida yangi g'oya, yangi fikrlar va yangi ta'limot vujudga keldi. Bu ta'limot o'lkada shakllangan ko'p xudolik va oshiqcha sarf-xarajatlarga, atrof-muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o'rin tutgan jonli hayvonlarni qirib ko'p-ko'p qurbonliklar qilinishiga qarshi tura oladigan ta'limot edi. Bu ta'limotga amal qilgan inson (Ezgu fikr, Ezgu kalom (so'z), Ezgu amal) butun hayoti davomida ana shu uchlikni qalbiga jo qilishi joiz hisoblangan. Ushbu ta'limotni asoschisi Zardo'sht bo'lib, u o'z ta'limotini jamiyatda yashovchi har qanday sinf vakillari orasida qo'rqmasdan tarqatib o'zini haqligini isbotlay olgan. Beruniyning guvohlik berishicha, Zardo'sht makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga kelishidan 258 yil ilgari dunyoga kelgan. Lekin keyingi izlanishlar, ayniqsa gatlarni (Avestodagi she'riy matnlar) analizi, ulardagi o'sha davr tabiiy sharoitlari va voqealarini tasvirlanishidan kelib chiqib, olimlar Zardo'shtni er.avv.VIII asrning oxirida dunyoga kelganini va VII asrning oxirgi choragida dunyodan o'tganligini tasdiqlashadi. Uning asosiy nomi Zaratushtra bo'lib "Sariq tuya sohibi", "Zarrin yorug'lik egasi" degan ma'nolarni anglatadi.[4]. U Quyi Amudaryo havzasida yashovchi mashhur Spitama urug'idan bo'lib (to'g'rirog'i Sipiymon-"Avesto"da sipiytoma. Payg'ambar Zardo'sht oilasi shu nom bilan yuritilgan. Sipiymon payg'ambar Zardo'shtni to'qqizinchi bobosining nomi bo'lib, pahlaviy tilida "oqlik" ma'nosini anglatadi, ba'zi avestoshunos olimlarning fikricha "Sipiymon" payg'ambarning bolalikdagi ismi, Zardo'sht ismi esa payg'ambarlikka erishgandan keyin berilgan deyishadi) u urug' oriyalar urug'i ittifoqiga kirgan. Uning otasini nomi Purishasp bo'lib, urug' koxinlardidan bo'lgan. Onasi ismi Dugova bo'lib, u ham Spitama urug'idan bo'lgan Faroxomaning qizi bo'lgan. Zardo'shtni yoshligidan otasi cho'pon Barzin-kurushga shogird qilib beradi. U 15 yoshigacha har hil xudolarga sig'inuvchi oriyalar urug'ida keng tarqalgan yashlarni yodlab oladi. U 23 yoshiga etganida urug'-qabilalar orasidagi kelishmovchiliklarning asosiy sababi ularning har hil xudolarga sig'inishligi ekanligi va xalqning ahvoli og'irligi esa ularning har hil xudolarga ko'plab qurbonliklar qilishligi va hatto qurbonlikka odamlarni ham ishlatilishligi ekanligida deb biladi. Shundan keyin u faqat bitta xudoga, ya'ni Ahura – Mazdaga (Ahura – "butun olamlarning egasi", "kuchli", Mazda – "aql-idrok", "donishmandlik") sig'inishni va uning ko'rsatmalari bo'lgan Avestoga amal qilishni targ'ib qila boshlaydi. Lekin uni bu da'vatlarini qabiladoshlari sovuqlik bilan kutib olishadi. Asrlar davomida ko'p xudolikka o'rganib qolgan kabiladoshlariga uning da'vatlari yomon ta'sir qiladi va uni vatanidan badarg'a qilishadi. U o'n yillab cho'lu-sahroda, tog'u-toshlarda, shaharu-qishloqlarda yurishga va bu davrda u erlarda o'z ta'limotini yoyishga bag'ishlaydi. Keyinchalik vataniga qaytib keladi va o'z qabiladoshiga uylanadi. Undan uch o'g'il va uch qiz tug'iladi. Ayrim manbalarda yozilishicha, Zardushtni xotini Kavi qabilasini vaziri Gushtaspi qizi bo'lgan. Hozirgi vaqtda uning g'oyalarini mujassamlantirgan ilmiy badiiy asar "Avesto" deb nomlanib, u asos solgan ta'limot va g'oyani o'zida mujassamlantirgan din zardushtiylik dini deyiladi. Zardo'shtiylik dini dualizmga asoslangan, ya'ni olam ikki asosning ikki ibtidoning, yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat deb uqtiradi.

"Avesto"da bayon qilingan voqealar asosan, "Arianam Vayja" mamlakatida, ya'ni olimlar tomonidan "Katta Xorazm" deb atalgan davlatda ro'y beradi. Bu davlat Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Xvayrezm (Xorazm)ni o'z ichiga olgan. Bu davlat o'sha vaqtda harbiy demokratiya tamoyillari asosida vujudga kelgan. "Avesto"da podshohlar, oliy tabaqa vakillari, ruhoniylarga va diniy urf-odatlariga ham katta o'rin ajratilgan. Unda qadimiy kishilarning dunyoqarashi ezgu niyatlari alohida o'rin egallagan. "Avesto"da tabiat, uni yovuz kuchlar (devlar)dan muhofaza qilish haqida ham qimmatli fikrlar aytilgan.O'z qavmlaridan ro'shnolik ko'rmagan ularning ta'qibiga, quvg'uniga duchor bo'lgan Zardo'sht Firdavsiy va Beruniylarning tasviricha, o'z dinini Eron shohi Vishtaspa asoslab

ko'rsatib, uning e'tirofini qozonadi. "Shahristonhoi Eron" kitobida Vishtasp farmoniga ko'ra, Zardo'sht 1200 bobdan iborat pandnoma "Avesto"ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan deb yozadilar. Shundan keyin shoh payg'ambarning tarafdori sifatida yangi dinning ashaddiy targ'ibotchisiga aylanadi. Bu orada Amuning ikki soholidagi yurtlarning hokimi Arjasp akasi Vishtaspni ajdodlar e'tiqodidan qaytganlikda ayblab, unga qarshi lashkar tortadi, ikki o'rtada urush boshlanib, urushda Arjasp o'ldiriladi. Natijada Eronu Turonda mazdaparaslik - zardo'shtiylik dini to'la joriy qilinadi. Zardo'shtning xohishi va Vishtaspning farmoniga ko'ra, barcha shaharlarda otashkadalar-ibodatxonalar quriladi. Avestoda bayon qilinishicha, Olam ikki asosning ibtidoning, ya'ni yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Bunda yozilishicha, Ezgulik xudosi Axuramazda bilan yovuzlik xudosi Ahriman (Avestoda "Angar Maynyu" pahlaviy tilida "Ahriman" –ma'nosi "Jang va dushmanlik olami", yangi Avestoda dushman devlar sardori, Ahura Mazdaning murosasiz dushmani. Ahura Mazda Ahriman to'g'risida so'z yuritarkan "butun borlig'i ajal bilan yo'g'rilgan", deb tariflaydi) o'rtasidagi kurash abadiydir, nihoyat, kurash natijada yaxshilik g'alaba qilishi kerak. Zardo'sht hammani yovuzlik, qorong'ulikqa qarshi keskin kurashga chorlaydi. Uning fikricha, insonlar doimo yaxshilik qilishi kerak. Mabodo, odam yomonlik, mudhishlik yo'liga kirsas, u bari bir ulug' xudo Axuramazda oldida qilmishi uchun javob berishi kerak deydi.

Shu davrdagi mavjud diniy aqidalarga qaraganda, Zardo'sht g'oyalari yangi g'oyalar bo'lib, ular Zardo'shtga go'yo ezgulik xudosi Ahuramazda tomonidan in'om etilgan. Ana shu g'oyalarga tayangan holda, shu davrda Zardo'sht Ahuramazdaning sevimli o'g'li sifatida, olamni yomonlikdan himoya qilishi kerak bo'lgan. Zardo'shtiyalar quyosh, olov, er, suv va havo kabi tabiat mo'jizalarini ulug'lab, ularga sig'inib kelganlar. Bu dinga sig'inadigan kishilar uchun olov, er, suv va havo muqaddas hisoblangan, ularni ifloslantirish katta gunoh sanalgan, hatto murdalarni erga ko'mish ham man qilingan. Murdalarni usti ochiq baland joyga qo'yishgan. Murdaning go'shtini qushlar, yovvoyi hayvonlar eb ketganlar, keyin murdaning qarindosh-urug'lari kelib, go'shtdan tozalangan suyaklarni yig'ib, ostadon (assuariy) deb atalgan maxsus sopol idishlarga joylab, abadiy saqlash maqsadida otashgohlarda qoldirib ketganlar. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyoda juda ko'plab qadimgi tepaliklar bag'ridan assuariylar topilmoqda, ular asosan er.avv. V-IV asrlarga mansub bo'lib, ko'pincha Xorazmning Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a yodgorliklaridan topilgan. Zardo'sht 77 yoshida Balx shahridagi ibodatxonada ibodat paytida ko'pxudolik tarafdori Bratarvaxsh tomonidan pichoqlab o'ldiriladi. Ammo uning ta'limoti va u asos solgan din Ajam (arab bo'lmagan) o'lkalarda islom majburan qabul qildirilguncha muqaddas e'tiqod sifatida e'zozlanib kelingan. Ushbu dinni asosi bo'lmish muqaddas kitob Avestoni ikki nusxasi makedoniyalik Aleksandrning yurishi davrida yo'q qilinadi. Sosoniylar davrining oxirlarida arablar Eronni bosib olib eski dinni va muqaddas kitoblarni o'tda yoqishadi. O'z etiqodlariga sodiq ba'zi bir qavmlar Avestoni kattagina qismini olib Hindistonga qochishadi. Ular katta qiyinchiliklar bilan Hindistonni Bombay shahri atrofidagi qishloqlardan biriga etib borishadi va u erda qolib ketishadi. Hozirgi kunda ham Bombay atrofida 250 000 nafar porslar yashashadi va Avestoni nusxasi ularda saqlanadi. Bundan xabari bo'lgan frantsiyalik olim Anketil Dyuperron 1755 yilda Hindistonga borib, ushbu qabilada yashaydi hamda ularni ishonchiga kirib bildirmasdan Avestoni nusxasini olishga va uni Evropaga 1761 yilda keltirishga erishadi. 1771 yilda "Zend Avestoni taxminiy tarjimalari" nomi ostida uch qismdan iborat kitobni nashrdan chiqaradi va Avestoni Evropaga tanishtirdi. Avesto qadimda ko'pchilik xalqlarga tanish bo'lgan, jumladan yunonlar, yahudiylar, rimliklar, suriyaliklar va boshqa xalqlar ham uni ta'limotidan bahramand bo'lishgan. Buning natijasida ular Avestoning qimmatli g'oyalarini o'zlarini ta'limotlarini ishlab chiqishda foydalanishgan.

Avesto 1825 yilda ingliz tilida, 1873 yilda nemis tilida, 1901 yilda rus tilida nashr qilingan.

Kitobning eng nodir nusxalari hozirgi kunda Parij va Daniyada Kopengagen Milliy kutubxonalarida saqlanmokda. Asarning o'zbekcha yangi nashri 2001 yilda "Avesto" yaratilganining 2700 yillik yubileyi munosabati bilan tayyorlandi.

Shuni aytish joizki, 1999 yil noyabr oyida xalqaro Yunesko tashkiloti o'zining Parijda bo'lib o'tgan 30 – sessiyasida "Avesto"ning 2700 yilligini keng nishonlash haqida qaror qabul qildi. Yubiley tantanalari 2001 yilda Avesto vatani O'zbekistonda, aynan Xorazmda keng nishonlandi va Urganch shahrida Avesto yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, yakka xudolikning ko'pchilik g'oyalari va tushunchalari, jumladan jannat va do'zax, arosat qiyomat kuni, farishtalar, iblis, jinlar va shu kabi tushunchalar oldin Avestoda uchragan bo'lsa, keyinchalik bu tushunchalar boshqa dinlarga jumladan, iudaizm, xristianlik va islom dinlariga ham kirib borgan.[5]

Qadimgi bobokalonlarimiz ko'ziga to'tiy qilgan "Avesto" muqaddas kitobi faqat diniy qo'shiq, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo'libgina qolmasdan, balki tabiiy fanlar, xususan, tabobat, ta'lim – tarbiya masalalarini ham o'z ichiga oladigan ilmiy manbadir. Zardo'shtiylik dinining muqaddas bayramlaridan biri Navro'zdir. Navro'z Markaziy Osiyo va forsiy xalqlarning yangi yilni nishonlashga bag'ishlangan katta bayramidir. Bahorda ya'ni 21 mart kuni koinotdagi barcha tirik jon, insoniyat, o'simlik va hayvonat dunyosi qayta jonlanadi. Insoniyat tabiyatning oliy mahsuli sifatida bu bayramni zo'r shodiyona bilan nishonlagan va hozirda ham nishonlab kelinmoqda. Mamlakatimizda Navro'z – bahor bayrami, yangi kun, tabiatni uyg'onish bayrami sifatida keng nishonladi. Zardo'shtiylik dinining afzal tomonlaridan biri shu ediki, ushbu dinda hukmdorlar saltanatini mustahkamlovchi rasmiy aqidalar bilan birga, insonni o'z hayotining, o'z taqdirining yaratuvchisi sifatida ulug'lovchi insonparvarlik g'oyalari ham qaror topgandir.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Avesto" kitobi -tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai" mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. -Toshkent, 2000.
2. Ashirov A. "Avesto"da meros marosimlari. -T., 2001.
3. Ishoqov M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari. (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1992. № 2.
4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir -Sh.Yovqochev. -T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2006
5. D.Bobojonov, M.Abdurasulov "Abadiyat farzandlari".Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti, 2009.
6. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/451>
7. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
8. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
9. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
10. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

11. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI // TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.